



O‘ZBEKISTONDA AUDIT TIZIMINING MOLIYAVIY BUZILISHLARNI KAMAYTIRISHDAGI O‘RNI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug‘bek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida audit tizimining moliyaviy buzilishlarni, jumladan byudjet mablag‘larining samarasiz sarflanishi, moliyaviy hisobotlardagi xatolari kamaytirishdagi roli ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot 2020-2025 yillarda amalga oshirilgan islohotlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-677-sonli qonuni va Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini ko‘rib chiqadi. Undan tashqari, davlat va xususiy sektorlarda aniqlangan moliyaviy buzilishlar, xususan, Hisob palatasi tomonidan amalga oshirilgan tekshiruvlar samaradorligi baholandi. Maqolada audit tizimining nazariy asoslari, O‘zbekiston sharoitida uning amaliy qo‘llanilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqotda hujjatli tahlil, taqqoslovchi tahlil va fakt-analiz metodlari qo‘llanilgan. Natijalar audit tizimi moliyaviy buzilishlarni oldini olishda samarali mexanizm ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: audit, audit tizimi, auditorlik faoliyati, moliyaviy buzilishlar, Hisob palatasi, xalqaro standartlar, davlat korxonalari, xususiy sektor, raqamlashtirish, moliyaviy shaffoflik, byudjet nazorati.

Аннотация

В статье научно проанализирована роль системы аудита в Республике Узбекистан в снижении финансовых нарушений, в том числе неэффективного расходования бюджетных средств и ошибок в финансовой отчетности. В



исследовании рассматриваются реформы, реализованные в 2020–2025 годах, в том числе Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» № 677 и Международные стандарты финансовой отчетности. Кроме того, дана оценка эффективности выявления финансовых нарушений в государственном и частном секторах, в частности, аудиторских проверок, проводимых Счетной палатой. В статье анализируются теоретические основы системы аудита, ее практическое применение в условиях Узбекистана, существующие проблемы и пути их устранения. В исследовании использовались методы документального анализа, сравнительного анализа и факт-анализа. Результаты показали, что система аудита является эффективным механизмом предотвращения финансовых нарушений.

Ключевые слова: аудит, система аудита, аудиторская деятельность, финансовые нарушения, Счетная палата, международные стандарты, государственные предприятия, частный сектор, цифровизация, финансовая прозрачность, бюджетный контроль.

Abstract

The article scientifically analyzes the role of the audit system in the Republic of Uzbekistan in reducing financial irregularities, including inefficient spending of budget funds, and errors in financial reporting. The study considers the reforms implemented in 2020-2025, including the Law of the Republic of Uzbekistan “On Auditing Activities” No. 677 and International Financial Reporting Standards. In addition, the effectiveness of financial irregularities identified in the public and private sectors, in particular, the audits carried out by the Accounts Chamber, was assessed. The article analyzes the theoretical foundations of the audit system, its practical application in the conditions of Uzbekistan, existing problems and ways to eliminate them. The study used documentary analysis, comparative analysis, and fact-analysis methods. The results showed that the audit system is an effective mechanism for preventing financial irregularities.



Keywords: audit: audit system, audit activities, financial irregularities, Chamber of Accounts, international standards, state-owned enterprises, private sector, digitalization, financial transparency, budget control.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar jarayonida moliyaviy nazorat va audit tizimini takomillashtirish masalasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Audit tizimi davlat va xususiy sektorlarda moliyaviy buzilishlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. 2020-2025 yillarda O‘zbekiston byudjet tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida auditorlik faoliyati xalqaro standartlarga moslashtirildi, jumladan

2025-yil

15-sentabrdagi PQ-282-sonli Qaror orqali moliyaviy hisob tizimini xalqaro talablarga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi, bu esa Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) davlat korxonalarida joriy etishni nazarda tutadi. Hisob palatasining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, audit natijasida 5,6 trillion so‘mlik samarasiz xarajatlar qisqartirildi va 4 trillion so‘mlik qonunbuzilishlar aniqlangan[1]. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tavsiyalariga ko‘ra, davlat korxonalarida ichki auditni kuchaytirish va xususiy kompaniyalarda majburiy auditorlikni joriy etishda “Masofaviy Audit” va “Davlat Auditi” dasturiy komplekslari orqali raqamli nazoratni kengaytirish mumkin deb hisoblaydi[2]. Audit tizimining rivojlanishi iqtisodiyotda shaffoflikni oshirish, moliyaviy buzilishlarni kamaytirish va davlat hamda xususiy sektorlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekistonda audit tizimi haqidagi ilmiy adabiyotlar asosan islohotlar davriga oid bo‘lib, xalqaro standartlarni joriy etish va ularning iqtisodiy ta‘sirini muhokama qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi



PQ-3946-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” auditorlikni litsenziyalashni soddalashtirish va xalqaro standartlarga o‘tishni belgilagan bo‘lib, bu qaror keyinchalik 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-sonli “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun orqali takomillashtirilgan. Xalqaro valyuta fondining 2024-yilgi Financial Sector Assessment Program hisobotida va 2025-yilgi yangilangan baholarda audit tizimining raqamlashtirilishi, masalan “Masofaviy audit” tizimi orqali moliyaviy xavflarni kamaytirishi ko‘rsatilgan. Mahalliy adabiyotlarda M.A.Abduraimovanning “Auditga umumiy tavsif” asarida moliyaviy auditning operatsion va samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashdagi roli ta’kidlangan, shu bilan birga 2024-2025 yillarda buxgalteriya va auditni modernizatsiya qilish bo‘yicha islohotlar natijalari va rejalarini ko‘rib chiqishda normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi muhimligi ta’kidlangan. Ushbu adabiyotlar audit tizimining rivojlanishini ta’minlashda muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Audit — bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini mustaqil baholash, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tekshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish jarayonidir.

Auditorlik tekshiruvi — xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog‘liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvi tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladi.

Auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat[3]:

- auditorlik faoliyatini va auditorlik xizmatlari bozoridagi halol raqobatni ilg‘or xalqaro amaliyot asosida rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;



- auditorlik tekshiruvlarining o‘rnini, ahamiyatini va ko‘rsatilayotgan auditorlik xizmatlarining sifati uchun auditorlik tashkilotlarining javobgarligini oshirish;
- auditorlarni kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazorat qilish tizimini shakllantirish;
- yoshlarni auditorlik kasbga jalb etish va kasbga oid auditorlarning respublika jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta’lim tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilishini ta’minlash.

Audit tizimi orqali aniqlanadigan moliyaviy buzilishlar, noto‘g‘ri buxgalteriya hisobotlari nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki investorlar ishonchini ham pasaytiradi. O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilgi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun audit tizimining huquqiy asosini belgilaydi. Unga muvofiq, auditorlik tashkilotlari va auditorlar moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholashda, aniqlangan buzilishlarni hujjatlashtirishda va tavsiyalar ishlab chiqishda mustaqil faoliyat yuritadi.

Biroq, amaliyotda auditorlik nazorati ko‘p hollarda formallikka aylanib qolmoqda. Ayrim auditorlik tashkilotlari tekshiruv natijalarini yetarlicha tahlil qilmaydi, mijoz manfaatlarini hisobga olgan holda yuzaki xulosalar beradi[4]. Bu esa audit tizimining asosiy maqsadi – moliyaviy intizomni ta’minlashga to‘siq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi va mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan olib borilgan tekshiruvlar natijasida ko‘plab moliyaviy buzilishlar aniqlangan. Masalan, 2024-yilda Hisob palatasi yangi manbalar hisobidan 3,7 trillion so‘m byudjetga qo‘shimcha tushumlarni ta’minladi. Vazirlik va idoralarning 9,2 trillion so‘mlik samarasiz xarajatlari maqbullashtirildi, 2,3 trillion so‘mlik moliyaviy kamchiliklar oldi olinib, ularning aksariyati noto‘g‘ri hisob va byudjet mablag‘larining samarasiz sarflanishi bilan bog‘liq[5]. Bu holat



audit tizimining zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, auditorlarning malakasi, axloqiy tamoyillarga rioya etilishi, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi kabi omillar tizim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda audit tizimi davlat tashqi auditi va ichki auditdan iborat bo'lib, uning huquqiy asoslari 1992-yildan boshlab shakllangan. Davlat korxonalarida audit PF-6300-sonli Farmon asosida amalga oshiriladi. 2025-yil 15-sentabrda qabul qilingan PQ-282-sonli president qarori moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishni, ya'ni davlat korxonalarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etishni nazarda tutgan. Moliyaviy buzilishlar davlat sektorida byudjetning 5-10 foizini yo'qotishiga olib keladi[6]. Misol uchun, 2025-yilning birinchi yarmida Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 5,6 trillion so'mlik samarasiz xarajatlar qisqartirildi va 4 trillion so'mlik qonunbuzilishlar aniqlangan[1].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ichki audit tizimi ko'plab tashkilotlarda yetarlicha rivojlanmagan. Ayrim hollarda ichki nazorat bo'limlari faqat hisobotlarni rasmiylashtirish bilan shug'ullanadi, tahliliy faoliyat olib bormaydi. Xalqaro amaliyotda esa ichki audit strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida qaraladi. Masalan, Yevropa davlatlarida ichki audit risklarni baholash, raqamli monitoring orqali moliyaviy oqimlarni kuzatish imkoniyatini beradi. Shu bois O'zbekistonda ham ichki auditni mustahkamlash va uni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish muhimdir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, audit tizimi moliyaviy intizomni mustahkamlash, buzilishlarni aniqlash va oldini olishda asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri – auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish, auditorlar malakasini oshirish va auditorlik natijalarini ochiqlik tamoyili asosida jamoatchilikka yetkazishdir. Audit tizimining raqamlashtirilishi, masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosida moliyaviy buzilishlarni



kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, audit organlari mustaqilligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, auditorlar uchun yagona sertifikatlash tizimini yaratish zarur.

Taklif etiladiki, O'zbekiston Respublikasida audit faoliyatini samarali yuritish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: birinchidan auditorlik xulosalari natijalarini ochiq platformalarda e'lon qilish, ikkinchidan auditda raqamli texnologiyalarni – masalan, big data, sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish, uchinchidan, auditorlar o'rtasida xalqaro tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/24/accounts-chamber>
2. Xalqaro Valyuta Fondi. *Financial Sector Assessment Program (FSAP) Report*, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sonli Qonuni.
4. Certified Public Accountants and Auditing Oversight Board. *Case Report from Audit Firm Inspection Results*, 2014.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/7827>
6. <https://www.investopedia.com/terms/b/budget-deficit.asp>